

LINGVOMADANIY SO‘ZLARNING LUG‘ATLARDA AKS ETISHI

Keldiyorova Farangiz Akbar qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Tarjima nazariyasi va amaliyoti fakulteti talabasi

farangizkeldiyorova911@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu mavzuni tanlash mazmuni shundan iboratki, hozirgii vaqtda lingvomadaniy so‘zlar va ularni tarjima qilish masalasi bo‘yicha aniq bir qo‘llanma yoki uslub o‘z ifodasini topmagan. Milliy xos so‘zlar tarjimasi har doim tarjimondagi asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Bunday so‘zlarning lug‘atlarda ifodalanishi va so‘zlarning mohiyatini ochib berishda asosan lug‘atlardan foydalanamiz. Bu mavzu har doim bir qancha murakkabliklarga sabab bo‘ladi va ayni paytda tarjimonning mavzuga nisbatan qiziqishini oshiradi. Tadqiqot predmetida asosiy tilda bevosita ekvivalentiga ega bo‘lmagan leksik birliklar va asosiy ma’lumotni o‘z ichiga olgan birliklar tushuniladi.

Kalit so‘zlar: *Lingvomadaniyat tushunchasi, lug‘at, lug‘at turlari, leksik birliklar, lingvomadaniy so‘zlar tarjimasi, badiiy tarjima metodlari.*

LINGUISTIC REPRESENTATION IN DICTIONARIES

Abstract: *The content of the choice of this topic is such that at the present time no specific guide or style has been expressed on the issue of linguistic words and their translation. Translation of nationally specific words is always one of the main problems in translation. When expressing such words in dictionaries and revealing the essence of words, we mainly use dictionaries. This topic always causes a number of complications and at the same time increases the translator's interest in the topic. The subject of the study is understood as lexical units that do not have a direct equivalent in the main language and units that contain basic information.*

Keywords: *the concept of linguistics, vocabulary, types of dictionaries, lexical units, translation of linguistic words, methods of artistic translation.*

ОТРАЖЕНИЕ ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫХ СЛОВ В СЛОВАРЯХ

Аннотация: *Содержание выбора данной темы состоит в том, что в настоящее время не нашлось четкого руководства или стиля по вопросу о лингвокультурных словах и их переводе. Перевод национальных специфических*

слов всегда является одной из основных проблем переводчика. Для выражения таких слов в словарях и раскрытия сущности слов мы в основном используем словари. Эта тема всегда вызывает ряд сложностей и в то же время повышает интерес переводчика к теме. Под предметом исследования понимаются лексические единицы, не имеющие прямого эквивалента в базовом языке, и единицы, содержащие основную информацию.

Ключевые слова: *Понятие Лингвокультуры, лексика, виды лексики, лексические единицы, перевод лингвокультурных слов, методы художественного перевода.*

Tarjimada asliyat tilida aks etgan tushunchani anglash va bu tushunchani tarjima tiliga me'yoriga yetkazib tarjima qilish, matndagi turli elementlarning leksik, frazeologik, Grammatik, fonetik xususiyatlarini anglash, tarjima tilida ularga har tomonlama muqobillar topish tarjima jarayonida juda murakkab jarayonlardan biridir. Biz so'zlarning nozik qirralarini , ularni ifoda etuvchi ma'nolarini va barcha xususiyatlarini lug'atlar orqali nilishimiz mumkin. Avvalo, lug'at o'zi nima ekanligini tushunishimiz lozim. Lug'at — bu tilning leksik birliklarini tartiblangan ro'yxat shaklida yig'uvchi kitob yoki elektron resurs bo'lib, har bir so'zning ma'nosi, talaffuzi, grammatik xususiyatlari, etimologiyasi va ko'pincha misollar bilan qo'llanilishi haqida ma'lumot beradi. Ma'lum bir til yoki ikki va undan ortiq til so'zlarini yig'ib, sistemalashtirilgan holda lug'at tarzida chiqarish leksikografiya deyiladi. Leksikografiya lug'at va lug'atchilik to'g'risida bahs ketadi.

Leksikografiyaning ikki tarmog'i bor:

Lug'atchilik

Lug'at tuzish bilan bog'liq nazariy masalalarni o'rganuvchi tarmoq,

Lug'atlar o'z mohiyati e'tibori bilan ikki tipga bo'linadi

1. Ensiklopedik, ya'ni qomus lug'atlari;
2. Lingvistik lug'atlar,

Bu lug'atlar o'zaro ikki jihatdan farq qiladi:

Ob'yekti jihatidan

So'zligi jihatidan.

Lingvistik lug‘atlarning ob‘yektini so‘zdir. Bunday lug‘atlar so‘zlarning semantikasi, grammatik xususiyatlari, imlosi, talaffuzi, etimologiyasi va h.k. haqida ma‘lumot beradi.

Ensiklopedik lug‘atlarning ob‘yektini so‘zlarda ifoda topgan narsa, hodisa, tushuncha, shaxs kabilardir. Bunday lug‘atlarda narsa, hodisa, tushuncha, shaxs haqida ma‘lumotlar qayd etiladi.

Lingvistik lug‘atlarning so‘zligida barcha mustaqil va yordamchi so‘zlar qayd etiladi.

Ensiklopedik lug‘atlar o‘z xarakteriga ko‘ra ikki xil:

Umumxarakterdagi ensiklopediya;

Maxsus ensiklopediya.

Umumxarakterdagi ensiklopediya ilmning barcha sohalari bo‘yicha; mashhur shaxslar, olimlar, shoirlar haqida ancha keng ma‘lumot beradi,

Maxsus xarakterdagi ensiklopediyalarga meditsina ensiklopediyasi, adabiyotshunoslik ensiklopediyasi va h.k. kiradi.

Filologik lug‘atlarda ma‘lum bir tildagi so‘zlar va iboralar ma‘nosi izohlanadi yoki ikki, uch tildagi so‘zlar tarjima qilib beriladi, til xususiyatiga ko‘ra bunday lug‘atlar uchga bo‘linadi:

Bir tilli lug‘atlar.

Ikki tilli tarjima lug‘atlar.

Ko‘p tilli tarjima lug‘atlari,

Lingvomadaniy so‘zlar lug‘atlarda bir necha usullar orqali beriladi va ba‘zi muammolarni ham keltirib chiqaradi. Bu so‘zlar til va madaniyat o‘rtasidagi noyob bog‘lanishni ifodalaydi va ularni lug‘atlarda to‘g‘ri ko‘rsatish muhim ahamiyatga ega. Lingvomadaniy so‘zlarning lug‘atlarda aks etishining bir necha usullariga to‘xtalsak:

1. Definiitsiya va tavsiflar: Lingvomadaniy so‘zlarning ma‘nosi va madaniy kontekstini tushuntiruvchi aniq va batafsil definiitsiyalar beriladi. Ushbu definiitsiyalar so‘zning madaniy, tarixiy yoki ijtimoiy ahamiyatini yoritadi.

Masalan: - "Siesta": Lug‘atda "ispancha tushlikdan keyingi qisqa uyqu yoki dam olish vaqti" deb ta‘riflanadi. Bu so‘z Ispaniya va Lotin Amerikasidagi odat va

turmush tarzini aks ettiradi. Bu soʻzning madaniy talablari uni toʻgʻri tushuntirishni talab qiladi, chunki boshqa madaniyatlarda bunday odat yoʻq

2. Qoʻllanish misollari: Soʻzlarning real hayotdagi qoʻllanishi haqida misollar keltiriladi. Bu misollar soʻzning qanday va qaysi kontekstlarda ishlatilishini koʻrsatadi.

3. Etimologiya: Lingvomadaniy soʻzlarning kelib chiqishi va rivojlanish tarixi haqida maʼlumotlar beriladi. Bu soʻzning qaysi davrda va qanday madaniyatlar taʼsirida shakllanganligini tushunishga yordam beradi.

Misol uchun: - “Bistro”: Fransuzcha soʻz boʻlib, “tez ovqatlanish joyi yoki kichik restoran” maʼnosini bildiradi. Soʻzning kelib chiqishi Rossiya armiyasi askarlarining Parijdagi qahvaxonalarni tezda xizmat koʻrsatishga chaqirgan “bistro” (tez) soʻzidan kelib chiqqan. Bu soʻzning tarixiy kelib chiqishi ham madaniy kontekstni tushunishda yordam beradi.

4. Kross-referensiyalar: Soʻz bilan bogʻliq boshqa lingvomadaniy atamalar va tushunchalarga havolalar beriladi. Bu oʻquvchiga soʻzning kengroq madaniy kontekstini tushunish imkonini beradi.

Misol uchun: - “Kanga”: Sharqiy Afrika madaniyatida keng tarqalgan kiyim matosi. Lugʻatlar bu soʻzni “sarong” va “kitenge” kabi boshqa milliy kiyimlar bilan bogʻliq holda koʻrsatadi, bu soʻzlar turli Afrikaning madaniy va ijtimoiy jihatlarini aks ettiradi. Bu soʻzning maʼnosini chuqurroq tushunish uchun yordam beradi.

5. Tasvirlar va illyustratsiyalar: Kerak boʻlsa, lingvomadaniy soʻzlarning maʼnosini yanada aniqroq tushuntirish uchun tasvirlar va illyustratsiyalar qoʻllaniladi.

Masalan: - “Totem”: Lugʻatda “baʼzi mahalliy amerika qabilalari tomonidan oila yoki qabilaning ramzi sifatida qabul qilingan hayvon yoki oʻsimlik” deb taʼriflanadi. Ushbu tushunchani tushuntirish uchun lugʻatda totem ustunining rasmi keltiriladi.

6. Fonetik va grammatika maʼlumotlari: Soʻzning toʻgʻri talaffuzi va grammatik shakllari koʻrsatiladi. Bu oʻquvchiga soʻzni toʻgʻri ishlatishni oʻrganishga yordam beradi.

Masalan: - “Schadenfreude”: Nemischa soʻz boʻlib, “boshqalarning baxtsizligidan zavqlanish” maʼnosini bildiradi. Lugʻatda bu soʻzning talaffuzi [ˈʃaːdn̩ˌfʁɔʏdə]

tarzida ko'rsatilgan va so'zning qaysi hollarda ishlatilishi grammatik jihatdan tushuntiriladi.

Lingvomadaniy so'zlar tarjimasidagi qiyinchiliklarning asosiylari ba'zi lingvomadaniy so'zlar boshqa tillarda bevosita ekvivalentiga ega emas, bu esa ularni to'liq va to'g'ri tarjima qilishni qiyinlashtiradi va yana bir asosiy sabab lug'atlar ko'pincha so'zning to'liq madaniy ma'nosini yetkaza olmaydi, bu esa noto'g'ri tushunishga olib kelishi mumkin.

Bunday adabiy va xalq og'zaki ijodiga tegishli matnlarni tarjima qilishda qanday qiyinchiliklarga uchrash mumkin? Qiyinchiliklardan biri bu manbalarning turli madaniyat va tillarga tegishliligidir, ya'ni ularning lingvomadaniy xususiyatlari turlichadir.

Yana bir qiyinchiliklardan biri turli millatlarga tegishli bo'lgan urf-odatlar tasvirlangan matnlarni tarjima qilishdir. Chunki shu xalqlarga tegishli bo'lgan atamalar, so'zlar, idiomalar, realialarning boshqa tildagi ekvivalenti bo'lmasligi mumkin yoki ular boshqa ma'noni anglatishi mumkin. Bunday holatlarda so'zma-so'z tarjima qilish xavfli hisoblanadi va tarjimondan tasavvurni talab etadi. Turli tarjima usullarida turlicha metodlardan foydalanish mumkin. Masalan, badiiy tarjima jarayonida quyidagi metodlardan foydalanish orqali ekvivalenti mavjud bo'lmagan so'zlarni tarjima qilish osonlashadi:

Epitetlar hodisa yoki obyektning badiiy xususiyatlarini beruvchi obrazli ta'rif. U sifat yoki ot, fe'l yoki ergash gap shaklida berilishi mumkin. Epitetlar adabiyot nazariyasining asosiy atamalaridan biri bo'lib, so'zni ta'riflaydi va uning ifodaligiga ta'sir qiladi. Asosan epitetlarni yozishda sifatlardan foydalaniladi.

Metaforalar tarjima qilinayotgan matndagi belgilarning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda semantik jihatdan tarjima qilish uchun foydalaniladi.

Neologizmlar asl ma'no saqlanib qolgan holda yangi zamonaviy so'zlar yordamida tarjima qilishdir.

Ironiya esa so'z va qarama-qarshilikni solishtirish orqali tarjima qilish.

Topologiya va asosli nomlar joy va odamlar nomlari o'quvchilarni hayratda qoldirish uchun bir xil ma'noda tarjima qilinadi.

XULOSA

Lingvomadaniyat har bir xalqning kelib chiqishi, qadriyatlari, urf-odat va an'analarini ifodalaydi. Bunday so'zlarning ma'nosini maromiga yetkazib tarjima qilish tarjimonning mahoratiga bog'liq. Bu kabi so'zlar har bir millatga xoslikni ifodalaydi va tarjimondan nafaqat yaxshi tarjimon bo'lish, balki asliyat tilidan tarjima qilinayotgan asar haqida, ya'ni asar mansub bo'lgan millat qadriyat, urf-odat va an'analari haqida ham xabardor bo'lishini talab etadi. Aks holda, bu bir qancha muammolarga sabab bo'lishi mumkin. Biz har qanday millat haqidagi ma'lumotlarni ularning manbalari orqali tushunishga harakat qilamiz. Bundan ko'rinadiki, biz biror bir millat haqida asarlardan tushuncha hosil qilishimiz tarjimon mahoratiga bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Lug'atchilik. Hozirgi o'zbek lug'atchiligi va turlari [Lug'atchilik. Hozirgi o'zbek lug'atchiligi va lug'at turlari. \(abiturtest.uz\)](#)
2. [Beshik to'yi - Vikipediya \(wikipedia.org\)](#)
3. The Impact of Linguistic and Cultural Competence on Translation Quality: Pedagogical Insights into Translation Problems
<https://www.academypublication.com/issues2/jltr/vol11/03/22.pdf>